**SAMARQAND VILOYATI NARPAY TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2025-yil 3-mart 49-7-98-Q/25 Narpay tumani hokimligi

**Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 22-fevraldagi “Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 55-7-0-Q/25-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1326-son qarori hamda Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 22-fevraldagi 55-7-0-Q/25-sonli qarorini inobatga olib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 22-fevraldagi “Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 55-7-0-Q/25-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 22-fevraldagi 55-7-0-Q/25-sonli qarori bilan:

Bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar miqdorlari 1-ilovaga;

Bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

Bozor va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish uchun to‘lovlarning miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin hamda ilovada ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Tuman soliq inspeksiyasi (Z.Turdiyev)ga:

tumandagi dehqon bozorlar va savdo kompleksidan tushadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to‘liq undirilishini;

yangi tasdiqlangan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati miqdorlari haqida tumandagi barcha bozorlar va savdo kompleksi, sotuvchi va xaridorlar e’tiboriga yetkazilishi, bu haqidagi ma’lumotlarni barcha ko‘rinarli joylarga joylashtirilishi hamda amalda tatbiq etilishi ustidan nazorat o‘rnatilishini;

ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati uchun to‘lovlarning holati bo‘yicha monitoring kuzatuvi yuritish va natijalari yuzasidan tuman hokimligiga aniq takliflar kiritib borilishini;

ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlarning yangi miqdorlarini to‘g‘ri qo‘llanilishi hamda to‘liq undirilishi va bozorlar daromadlarining belgilangan qismini mahalliy byudjetga o‘z vaqtida o‘tkazilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Jabborov) hamda “Navqiron Narpay” gazetasi tahririyati (T.Toshmurodov)ga ushbu qarorni ommaviy axborot vositalarida chop etilishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Boliyev zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **Sh.Buranov**

Narpay tuman hokimining
2025-yil 3-martdagi
49-7-98-Q/25-son qaroriga
1-ilova
*Samarqand viloyat hokimining 2025-yil 22-fevraldagi 55-7-0-Q/25-son qarori*
*bilan tasdiqlangan*
*1-ilova*

**Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlarning miqdorlari**

***(so‘m hisobida)***

| T/R | Mahsulot turi | O‘lchov birligi | Olinadigan to‘lovlar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shahri, Urgut va Samarqand tumani bozorlarida | Pastdarg‘om, Toyloq, Bulung‘ur, Jomboy, Oqdaryo Narpay tumani bozorlarida | Viloyatning qolgan tumanlari bozorlarida |
| **1.** | **Mahsulotlarni savdo o‘rinlarida sotish:** | | | | |
| **1.1.** | **Mevalar:**<br>**Ho‘l mevalar:** olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo‘ri, gilos, ko‘k va qizil sulton, o‘rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va h.k. | 1 o‘rin/kunga | 11000 | 9000 | 8000 |
| | sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi, va h.k.) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho‘l mevalar. | 1 o‘rin/kunga | 22000 | 14000 | 9000 |
| | **Quruq mevalar, yong‘oqlar:**<br>turshak, bargak, mayiz, yong‘oq, yer-yong‘oq, bodom, pistalar, sho‘rdanak va h.k. | 1 o‘rin/kunga | 23000 | 14000 | 11000 |
| **1.2.** | **Sabzavotlar:**<br>kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg‘om, bulg‘or qalampiri, baqlajon, patisson h.k. hamda pishirilgan jo‘xori. | 1 o‘rin/kunga | 8000 | 8000 | 6000 |
| | **a) pomidor, bodring (yozgi mavsumda)** | 1 o‘rin/kunga | 8000 | 7000 | 6000 |
| | **b) pomidor, bodring (qishgi mavsumda)** | 1 o‘rin/kunga | 15000 | 11000 | 10000 |
| **1.3.** | **Poliz mahsulotlari:**<br>handalak, qovun, tarvuz, qovoq (6 kv.metrgacha) | 1 o‘rin/kunga | 17000 | 10000 | 9000 |
| **1.4.** | **Don mahsulotlari:**<br>guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bug‘doy, suli, arpa va h.k. | 1 o‘rin/kunga | 11000 | 10000 | 8000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.5.** | **Dukkakli mahsulotlar:** mosh, loviya, no‘xat va h.k. | 1 o‘rin/kunga | 10000 | 9000 | 7000 |
| **1.6.** | **Sut mahsulotlari:** sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlog‘i, suzma va h.k. | 1 o‘rin/kunga | 9000 | 8000 | 6000 |
| **1.7.** | **Tuzlamalar:** karam, bodring, pomidor va h.k. | 1 o‘rin/kunga | 10000 | 9000 | 7000 |
| **1.8.** | **Ziravor va dorivorlar:** (zira, murch, qalampir va h.k.) h**amda asal** | 1 o‘rin/kunga | 9000 | 8000 | 6000 |
| **1.9.** | **Ko‘katlar** (shu jumladan issiqxonada yetishtirilganlar) | 1 o‘rin/kunga | 9000 | 7000 | 5000 |
| **1.10.** | **Tuxum** | 1 o‘rin/kunga | 9000 | 7000 | 7000 |
| **1.11.** | **Gullar va ko‘chatlar** (6 kv.metrgacha) | 1 o‘rin/kunga | 10000 | 10000 | 8000 |
| **1.12.** | **Non mahsulotlari** (obi non, patir va h.k.) | 1 o‘rin/kunga | 9000 | 8000 | 6000 |
| **1.13.** | **Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandalik mahsulotlari va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari** | 1 o‘rin/kunga | 9000 | 8000 | 6000 |
| **1.14.** | **Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari, salqin ichimliklar** | 1 o‘rin/kunga | 18000 | 15000 | 11000 |
| **1.15.** | **Milliy taomlar** | 1 o‘rin/kunga | 17000 | 14000 | 12000 |
| **1.16.** | **Polietilen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilari** | 1 o‘rin/kunga | 9000 | 7000 | 6000 |
| **1.17.** | **Supurgi** | 1 o‘rin/kunga | 8000 | 7000 | 7000 |
| **1.18.** | **Tirik baliq** | 1 o‘rin/kunga | 20000 | 15000 | 13000 |
| **1.19.** | **Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari:** (6 kv.metrgacha) | 1 o‘rin/kunga | 10000 | 8000 | 6000 |
| **1.20.** | **Mayda konselariya mollari (daftar, ruchka, bloknot va boshqalar) kalendarlar, bukletlar, gazeta, jurnallar va h.k** | 1 o‘rin/kunga | 8000 | 5000 | 5000 |
| **2.** | **Go‘sht mahsulotlari:** | | | | |
| **2.1.** | **mol, qo‘y, cho‘chka va boshqa hayvonlar go‘shtlari, dumba, jigar** | 1 o‘rin/kunga | 36000 | 31000 | 26000 |
| **2.2.** | **parranda go‘shti, til, kalla-pocha va h.klar alohida sotilganda** | 1 o‘rin/kunga | 21000 | 17000 | 15000 |
| **2.3.** | **Tayyor pishgan go‘shtli maxsulotlar: (qazi, til, ruletlar, kolbasalar va h.k.)** | 1 o‘rin/kunga | 25000 | 22000 | 20000 |
| | **Mahsulotlarni avtomashinalardan sotish:** | | | | |
| | yengil avtomashinalardan | 1 mashina | 24000 | 22000 | 19000 |
| | yuk avtomashinalardan | 1 mashina | 33000 | 30000 | 24000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3. | tirkama, yarim tirkama yuk avtomashinalari va avtopoezdlardan | 1 mashina | 22000 | 18000 | 16000 |
| | mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda) (6 kv.metrgacha) | 1 o‘rin/kunga | 13000 | 11000 | 10000 |
| **4.** | **Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun):** shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, somon, guruch va makkajo‘xori poyasi va h.k. | 1 mashina | 13000 | 10000 | 9000 |
| **5.** | **Tayyor ustki kiyimlar, ichki kiyimlar, o‘rin-to‘shak jihozlari, gazlamalar, turli xildagi mato jildlar, payafzallar va boshqa sanoat mollari** | 1 joy uchun | 15000 | 12000 | 10000 |
| **5.1.** | **Televizor, org-texnika, mebel jihozlari, gilam mahsulotlari va h.k . (6 kv.metr)** | 1 joy uchun | 18000 | 15000 | 11000 |
| **5,2** | **Uyali telefon aksessuarlari va boshqa buyumlar (DVD, pult, tyuner, antenna, yoritish fonarlari va x.k)** | 1 joy uchun | 18000 | 15000 | 11000 |
| **6.** | **Ilgari foydalanishda bo‘lgan buyumlarni sotish: uy ro‘zg‘or jihoz buyumlari va kiyim kechaklar** | 1 urin/kunga | 8000 | 7000 | 6000 |
| **7.** | **Avtotransport vositalarini sotish:** | | | | |
| **7.1.** | **Yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar, shundan:** | | | | |
| | GM-O‘zbekiston (O‘zDEU) va xorijda ishlab chiqarilgan yengil avtomashinalar | 1 dona | 55 000 | x | x |
| | MDH (SNG) davlatlarida ishlab chiqarilgan avtomashinalar | 1 dona | 35 000 | x | x |
| | yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari | 1 dona | 40 000 | x | x |
| | motosikl, motoreller va mopedlar | 1 dona | 13 000 | x | x |
| | velosipedlar | 1 dona | 9 000 | 7 000 | 7 000 |
| **7.2.** | **Ilgari foydalanishda bo‘lgan ehtiyot qismlarni sotish:** -avtomobillar uchun ehtiyot qismlar | 1 o‘rin/kunga | 13 000 | 11 000 | 10 000 |
| **8.** | **Mol bozoriga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun:** | | | | |
| **8.1.** | **Ot, toy, tuya** | 1 bosh | 32 000 | 32 000 | 32 000 |
| | butaloq, eshak | 1 bosh | 13 000 | 13 000 | 13 000 |
| **8.2.** | **Yirik shoxli qoramol :** | | | | |
| | yirik shoxli qoramol (shu jumladan, sigir buzog‘i bilan) | 1 bosh | 35 000 | 35 000 | 35 000 |
| | buzoq | 1 bosh | 23 000 | 23 000 | 23 000 |
| | **Mayda shohli** | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 8.3. | **qoramol:** | | | | |
| | qo‘y, echki (qo‘y qo‘zisi bilan, echki ulog‘i bilan) | 1 bosh | 24 000 | 24 000 | 24 000 |
| | qo‘zi, uloq | 1 bosh | 18 000 | 18 000 | 18 000 |
| **8.4.** | **Cho‘chqalar, cho‘chqa bolalari** | 1 bosh | 18 000 | 18 000 | 18 000 |
| **9.** | **Uy parrandalari:** kurka,tovuq, o‘rdak, g‘oz | 1 bosh | 7 000 | 7 000 | 7 000 |
| | tovuq, kurka, o‘rdak, g‘oz jo‘jalari | 10 bosh | 7 000 | 7 000 | 7 000 |
| **10.** | **Itlar va mushuklar** | 1 o‘rin/kunga | 9 000 | 9 000 | 9 000 |
| **11.** | **Manzarali qushlar va baliqlar** | 1 o‘rin/kunga | 11 000 | 11 000 | 11 000 |
| **12.** | **Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar** | 1 o‘rin/kunga | 6 000 | 6 000 | 6 000 |
| **13.** | **Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari tegishli aksessuarlar va buyumlar, bir joyda** | 1 o‘rin/kunga | 8 000 | 8 000 | 8 000 |

Izoh*:*

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste’moli mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o‘rni) o‘lchami 1 - 1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o‘lchamdan ortiq o‘rin uchun qo‘shimcha ravishda har bir savdo o‘rni uchun belgilangan to‘lov miqdorida joy haqi undiriladi.
2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste’moli mollari aralash holda sotilganda, to‘lov sotiladigan mahsulot turlari bo‘yicha belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha undiriladi.
3. Urgut, Qo‘shrabot, Ishtixon, Payariq tumanlaridagi dehqon bozorlarda katta tarozida tortishda har bir kg.uchun mayiz-400 so‘m, no‘xat-400 so‘m deb, patta puli undirilsin.(faqat Kattaqo‘rg‘on tumanidagi dehqon bozorlari uchun katta tarozida tortishda har bir kg.uchun mayiz-200,0 so‘m)
4. Har bir ko‘rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lov tarkibiga qo‘shilgan qiymati solig‘i qo‘shilgan holda hisoblanganligi inobatga olinsin.

Narpay tuman hokimining
2025-yil 3-martdagi
49-7-98-Q/25-son qaroriga
2-ilova
*Samarqand viloyat hokimining 2025-yil 22-fevraldagi 55-7-0-Q/25-son qarori bilan tasdiqlangan 2-ilova*

**Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish hamda koʻrsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan toʻlovlarning miqdorlari**

***(soʻm hisobida)***

| T/R | Koʻrsatiladigan xizmatlar turi | Oʻlchov birligi | Olinadigan toʻlovlar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Samarqand va Kattaqoʻrgʻon shahri, Urgut tumani bozorlarida | Samarqand, Pastdargʻom, Toyloq, Bulungʻur, Jomboy, Oqdaryo va Narpay tumani bozorlarida | Viloyatning qolgan tumanlari bozorlarida |
| 1. | **Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara toʻlovi:** | | | | |
| | Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari sotish | kv.m./ oyiga | 34 000 | 29 000 | 26 000 |
| | Umumiy ovqatlanish | kv.m./ oyiga | 34 000 | 29 000 | 26 000 |
| | Maishiy xizmat koʻrsatish | kv.m./ oyiga | 23 000 | 20 000 | 18 000 |
| | Boshqa turlar (ombor, ofis, dorixona, paynet va h.k.) | kv.m./ oyiga | 27 000 | 24 000 | 20 000 |
| 2. | **Inventarlarni ijaraga berish:** | | | | |
| 2.1. | **Tosh-tarozilar uchun** | 1 kunga | 5 000 | 4 000 | 3 000 |
| 2.2. | **Katta yuk tortish tarozilari uchun** | | | | |
| | 150 kg.gacha | 1 kunga | 7 000 | 6 000 | 6 000 |
| | 150 kg.dan 1500 kg.gacha | 1 kunga | 15 000 | 14 000 | 13 000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2.3.** | **Savdo jihozlari uchun** (bolta, taxtakach, pichoq, o‘rindiq, voronka, patnis, savat va h.k.) (butun to‘plam uchun, bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi) | 1 kunga | 5 000 | 5 000 | 5 000 |
| **2.4.** | **Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to‘plam uchun, bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)** | 1 kunga | 5 000 | 5 000 | 5 000 |
| **2.5.** | **Mahsulotlar uchun brezent berish** | 1 kunga | 5 000 | 5 000 | 5 000 |
| **2.6.** | **Aravachalar uchun** | 1 kunga | 7 000 | 6 000 | 6 000 |
| **2.7.** | **Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun** *(1 kv.m)* | 1 kunga | 7 000 | 5 000 | 5 000 |
| **3.** | **Ko‘rsatiladigan xizmat turlari:** | | | | |
| **3.1.** | **Qishloq xo‘jalik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:** | | | | |
| | sovutgichlarda (har bir yashik, qop va h.k. uchun) | 1 kunga | 10 000 | 9 000 | 8 000 |
| | omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k. uchun ) | 1 kunga | 10 000 | 9 000 | 8 000 |
| | bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda (savdo o‘rni hisobidan) | 1 kunga | 9 000 | 8 000 | 7 000 |
| **3.2.** | **Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50x50x100 o‘lchamdagi joy uchun)** | 1 kunga | 9 000 | 8 000 | 7 000 |
| **3.3.** | **Mahsulotlarni tarozida tortish:** | | | | |
| | katta yuk tarozida | 1 marta tortish | 6 000 | 5 000 | 5 000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | yirik va mayda shoxli qoramolni tortish | 1 marta tortish | 7 000 | 6 000 | 5 000 |
| 3.4. | **Avtotarozilardan foydalanish:** | | | | |
| | **yuk ko'tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo'lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoezdlardan:** | | | | |
| | yuk bilan | 1 marta o'lchash | 8 000 | 7 000 | 6 000 |
| | yuksiz | 1 marta o'lchash | 7 000 | 6 000 | 5 000 |
| | **agacha bo'lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:** | | | | |
| | yuk bilan | 1 marta o'lchash | 7 000 | 7 000 | 5 000 |
| | yuksiz | 1 marta o'lchash | 5 000 | 5 000 | 5 000 |
| | **yengil avtomashinalardan:** | | | | |
| | yuk bilan | 1 marta o'lchash | 7 000 | 5 000 | 5 000 |
| | yuksiz | 1 marta o'lchash | 6 000 | 5 000 | 4 000 |
| | **tirkamali yengil avtomashinalardan:** | | | | |
| | yuk bilan | 1 marta o'lchash | 7 000 | 6 000 | 5 000 |
| | yuksiz | 1 marta o'lchash | 6 000 | 5 000 | 5 000 |
| **3.5.** | **Mehmonxona xizmatidan foydalanish (1 ta joy uchun)** | 1 kunga | 18 000 | 12 000 | 12 000 |
| **3.6.** | **Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:** | | | | |
| | **yengil avtomashinalar uchun | 1 soatga | 6 000 | 5 000 | 4 000 |
| | yuk avtomashinalari uchun | 1 soatga | 8 000 | 7 000 | 7 000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | "Samarqand Inovatsion avtomobillarni sotish" bozorida:<br>a) bozor bo‘lmagan kunlari hududda avtotransport vositasiga xizmat ko‘rsatish uchun | 1 kunga | 8 000 | x | x |
| 3.7. | **Transport vositalarining yuk ortish va tushirish uchun bozorlar va savdo komplekslari hududiga kirishi (qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tushirish uchun kirgan avtotransport vositalari bundan mustasno):** | | | | |
| | yengil avtomashinalar uchun | marta kirish | 7 000 | 7 000 | 6 000 |
| | yuk avtomashinalari uchun | marta kirish | 9 000 | 8 000 | 7 000 |
| **3.8.** | **Poyabzal ta’mirlash xizmati** | 1 urin/kunga | 4 000 | 4 000 | 4 000 |
| **3.9.** | **Hojatxona xizmatidan foydalanish** | 1 marta | 5 000 | 4 000 | 3 000 |
| **3.10.** | **Telefondan foydalanish** | 1 marta | 1 000 | 1 000 | 1 000 |
| **3.11.** | **Radiouzel orqali e’lon berish** | 3 marta takror | To‘lov olinmaydi | To‘lov olinmaydi | To‘lov olinmaydi |
| **3.12.** | **Boshqa ko‘rsatiladigan har xil xizmatlar uchun** | 1 kunga | 6 000 | 6 000 | 5 000 |
| **3.13.** | **Umumiy foydalaniladigan obektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar** *(asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo‘laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer ostki va yer ustki kanalizasiya lotoklari, tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo‘g‘inlari, umumiy hududni qo‘riqlash va tozalash, maishiy va meva - sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikasiya* | 1 kv.m./ oyiga | 24 000 | 19 000 | 17 000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | *inshooatlari)** | | | | |

Izoh*:* Kattaqo‘rg‘on shahridagi dehqon va savdo komplekslarida umumiy foydalanadigan obyektlarni saqlash uchun ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar

- 19 000 so‘m deb olinsin;

Tumanlardagi haftada bir (ikki) ish kuni bo‘lgan bozor va savdo komplekslarida umumiy foydalanadigan obektlarni saqlash uchun ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar - 12000 so‘m deb olinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi PQ-1326-sonli qaroriga muvofiq, ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar ro‘yxati va qiymati Qorakalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari xududidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko‘rsatiladi hamda ular uchun kadastr xujjatlarida ko‘rsatilgan egallagan yer maydonlaridan kelib chiqib, bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan tegishli to‘lovlar undirib olinadi.

**Chelak dehqon bozoridagi yangi bozor avtoturargohiga 3000 so‘m, eski bozor hududidagi avtoturargohga 4000 so‘m, Chelak shahridagi 4-R-48 avtomobil yo‘lini Chelak shahrida tashkil qilingan avtoturargohda vaqtincha saqlash 5000 so‘m qilib belgilansin.

Har bir ko‘rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lov tarkibiga qo‘shilgan qiymati solig‘i qo‘shilgan holda hisoblanganligi inobatga olinsin.

Narpay tuman hokimining
2025-yil 3-martdagi
49-7-98-Q/25-son qaroriga
3-ilova
*Samarqand viloyat hokimining 2025-yil
22-fevraldagi 55-7-0-Q/25-son qarori bilan
tasdiqlangan 3-ilova*

**Maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotishdan undiriladigan to‘lovlar miqdori**

***(so‘m hisobida)***

| T/R | To‘lov turi | O‘lchov birligi | Olinadigan to‘lovlar |
|---|---|---|---|
| **1** | **Maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish:** | | |
| 1.1. | 6 kv.metrgacha | 1 o‘rin/kunga | 18 000 |
| 1.2. | 6 dan - 15 kv.metrgacha | 1 o‘rin/kunga | 22 000 |
| 1.3. | 15 dan - 30 kv.metrgacha | 1 o‘rin/kunga | 24 000 |
| **2** | **Qurilish materiallarini vaqtinchalik saqlash uchun** | 1 urin/kunga | 17 000 |
| **3** | **Kichik o‘lchamdagi qurilish materiallari (mayda o‘lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (lustra, svetilniklar va h.k.) sotish (6 kv.metrgacha)** | 1 o‘rin/kunga | 17 000 |
| **4** | **Mahalliy (terak, qamich, somon va h.q.) va eski qurilish materiallari** | bir kv.metr | 2 000 |

Izoh: Har bir ko‘rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lov tarkibiga qo‘shilgan qiymati solig‘i qo‘shilgan holda hisoblanganligi inobatga olinsin.